


1. Xalqaro Qizil kitob



Qizil kitob haqida nimalar bilishingizni esga oling. Bu kitobning vazifasi nima?




Xalqaro "Qizil kitob" – jarayondagi noyob, yo'q bo'lib ketgan yoki yo'qolib ketish xavfi yuqori bo'lgan o'simlik va hayvonlar ro'yxati kiritilgan kitob.

"Qizil kitob" birinchi marta 1963-yilda nashr etilgan. Shunga qaramay, olimlar hozir ham bu kitob ustida ish olib bormoqda. O'simliklarning yashash sharoitlari o'zgarishi hisobiga "Qizil kitob"da ham tuzatishlar paydo bo'ladi. Ba'zi o'simliklar qayta ko'payishi, boshqalari esa yo'qolish xavfi ostida qolgan bo'lishi mumkin.


Qulaylik uchun "Qizil kitob" sahifalari alohida ranglarda ajratilgan.



Qora rangli sahifalardan yo'qolib ketgan o'simlik va hayvon turlari joy olgan.




Qizil sahifalar yo'qolib ketish xavfi yuqori bo'lgan o'simlik va hayvonlar haqida ma'lumot beradi.



Yashil sahifalar yo'qolib ketish xavfi bo'lmagan turlar haqida.



Kulrang sahifalarda kam o'rganilgan turlar tavsiflangan.



Oq sahifalar noyob turlar haqida.



1-topshiriq. Daftarga Qizil kitob haqida qisqacha ma'lumot yozing.

2. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi



O'zbekistonning ham Qizil kitobi bor. Unda O'zbekiston hududida yo'qolib borayotgan hayvonlar va o'simliklar ro'yxati keltirilgan.

Qizil kitob har 5 yilda qayta nashr etiladi. So'nggi nashrda O'zbekistondan tashqarida o'sadigan va yurtimizda kam uchraydigan o'simliklarning ayrim turlari kitobdan chiqarib tashlandi. Shuningdek, yo'qolish arafasida turgan ko'plab o'simliklarning holati o'zgardi. Buning yetarli sabablari bor. Masalan, ko'pgina sayyohlar hech ikkilanmasdan gullarni uzadilar, ular orasida noyob turlar bo'lishi mumkin. Cho'ponlar podalarni "Qizil kitob"ga kiritilgan gullar o'sishi mumkin bo'lgan o'tloqlarga haydashadi.

"Qizil kitob"da yo'q bo'layotgan turlarni qanday saqlashga oid tavsiyalar berilgan. Tabiatni muhofaza etish bo'yicha qabul qilingan qonunlar ularni himoya qilishga yordam beradi.



Rasmlarga qarab, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobining birinchi va ikkinchi jildida nimalar haqida yozilganini aniqlang.

3. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simliklar

O'zbekiston tabiati boy va rang-barangdir. Bahorda gullaydigan o'simliklarning go'zalligi va xilma-xilligi bizni hayratda qoldiradi. Ajoyib gullarni uzib, ulardan guldastalar yasashadi. Bu guldastalar bir necha soat, ko'pi bilan bir necha kun yashaydi. Ammo uzilgan gullar o'rnida hech qachon urug'lar to'kilmaydi, yangi o'simliklar paydo bo'lmaydi.



Anor

Talas
akoniti



Gulsafsar

Hisor badani



2-topshiriq. Daftarga Qizil kitob haqida qisqacha ma'lumot yozib qo'ying.

4. O'zbekiston endemiklari

Endemik – kichik hududda uchraydigan o'simlik. O'zbekistonda o'sadigan ko'plab lolalar endemik hisoblanadi. Masalan, o'zbek lolasi faqat Qashqadaryo viloyatida o'sadi. "Qizil kitob"ni yaratgan olimlar bu o'simliklarning faqat 300 tasini topishgan. Bu lolaga odamlar katta zarar yetkazadi.



Foster lolasi




O'zbek chinnigullari

Yana bir endemik – o'zbek chinnigullari. Bu juda kam uchraydigan o'simlik. Uning pushti gullari qoya va toshlar orasida yaqqol ajralib turadi. Sayyohlar bu o'simlik yo'q bo'lib ketish arafasida ekanini bilmasdan, ulardan chiroyli guldastalar yasaydilar. Bu o'simliklarni saqlab qolish uchun ular Botanika bog'i va Kitob qo'riqxonasi hududida o'stiriladi.



3-topshiriq. Bir odam noyob o'simlikni yulayotganini ko'rib qolsangiz, qanday yo'l tutasiz?



O'zbekistonning noyob o'simliklaridan biri haqida ma'lumot tayyorlang.